



PROFILAKTIKA INSPEKTORINING HUQUQBUZALIKLAR PROFILAKTIKASIDA ADLIYA ORGANLARI BILAN HAMKORLIGI

Ibrohimova Mohigul Nozimjon qizi

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar
profilaktikasi faoliyati ixtisosligi bo'yicha tahsil olayotgan 3-
o'quv kursi 311-guruh kursanti

G'aniyev Farrux Taxirjanovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar
profilaktikasi faoliyati kafedrasida katta o'qituvchisi Toshkent,

100197, O'zbekiston, e-mail: fargan77@bk.ru

orcid.org/0009-0005-2423-050X

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14604972>

ARTICLE INFO

Received: 2nd January 2025

Accepted: 4th January 2025

Published: 6th January 2025

KEYWORDS

*Huquqbuzarliklar
profilaktikasi, adliya, dudlangan
cho'chqa go'shti, muammo, takliflar,
milliy qonunchilik, hamkorlikni
ta'minlash*

ABSTRACT

*Ushbu maqolada profilaktika inspektorining
Huquqbuzarliklar profilaktikasida Adliya organlari
bilan xamkorligining o'ziga xos xususiyatlari,
hamkorlikning tashkiliy hamda huquqiy asoslari,
o'zaro hamkorlik qilishda yuzaga keladigan
muammo va kamchiliklar, shuningdek, ushbu
muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha
bir qator takliflar, ilg'or xorijiy tajribasi va milliy
qonunchiligimizning o'xshash va farqli tomonlari,
hamkorlikni takomillashtirish yo'nalishlari
yoritilgan.*

Profilaktika inspektorlari respublikada istiqomat qilayotgan xalqimizning xuquqlari va erkinliklarini himoya qilish, ularning turli mazmundagi murojatlarini milliy va ma'naviy qadryatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan xolda xal qilish, fuqarolarning huquqiy madaniyati va ijtimoiy faolligini oshirish, ma'naviy muhit barqarorligini taminlash, oila va maxallalarda tinch osoyishta hamjixatlikda yashashga ko'maklashish, yosh avlodni sog'lom, vatanga muxabbat ruxida tarbiyalash, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini milliy va ma'naviy qadriyatlarimizga tayangan xolda keng targ'ib etish orqali ma'naviy muhit barqarorligini taminlashga ko'maklashish, xududda ma'naviy asoslarni mustahkamlash, tarixan tarkib topgan milliy va ma'naviy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab avaylash, xalqimiz ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga ona vatanga muxabbat, milliy istiqolol g'oyalariga sadoqat ruxini singdirish, millatlararo do'stlik va hamjixatlikni mustahkamlash borasida o'tkazilyotgan ommaviy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy va tarbiyaviy tadbirlarning amalga oshirilishiga ko'maklashish, xududda aniq yo'naltirilgan asosda aholining huquqiy himoyaga muxtoj qatlamlarini qo'llab - quvatlash bo'yicha chora - tadbirlarning amalga oshirilishida Adliya organlari bilan xamkorligi o'rinli va tug'ri tanlanganligini bugungi xayotning o'zi isbotlamoqda. Ushbu xamkorlik bugungi kunda huquqbuzarliklar profilaktikasida o'zining ijobiy samarasini berayotganligi hech kimga sir emas. O'tgan yillar davomida Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi boshqa davlat organlari va jamoatchilik tuzilmalari bilan hamkorligini isloh qilish va kuchaytirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar mamlakatimiz fuqorolarining ichki ishlar organlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlash uchun zarur shart - sharoitlarni

yaratdi. Bu esa o'z navbatida Ichki ishlar organlariga kuch-qudrat bag'ishlab, ularning ishonchli faoliyat yuritishini ta'minlamoqda".

O'zbekiston Respublikasining "Xuquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi 2014 yil 14 maydagi qonunining 13 moddasida xamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-sonli farmonida Adliya organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlarida aholi o'rtasida jamiyatda huquqiy ongni, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ'ibot bo'yicha faoliyatni amalga oshirish hamda muvofiqlashtirib borish orqali xuquqbuzarliklar profilaktikasidagi ishtiroki belgilab berilganligi profilaktika inspektorlarining huquqbuzarliklar profilaktikasida Adliya organlari bilan hamkorligini huquqiy jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi. Profilaktika inspektorlari va Adliya organlari hamkorlikdagi faoliyati jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni xal qilishda katta axamiyat kasb etadi.

Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati doirasida Adliya organlari bilan hamkorligini tashkil etish fuqarolarning jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qilishida, huquqbuzarliklar profilaktikasida, sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarlik va jinoyatlarni oldini olishni amalga oshirishda Adliya organlarining roli va o'rni oshishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18-apreldagi PQ2896-sonli Qarorida profilaktika inspektorlarining vakolatlari sifatida huquqbuzarliklar profilaktikasi, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, ularga qonunga hurmat xissini singdirish bo'yicha tadbirlarni, shu jumladan, davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari vakillarini jalb etgan holda, o'tkazish kiritilgan.

Umuman olganda profilaktika inspektori fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda Adliya organlari bilan xamkorlik olib borishi muximdir. Birlamchi tushuncha sifatida profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish faoliyati namoyon bo'ladi. Mazkur faoliyat deganda huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo'llaniladigan huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimidir.

Huquqiy ong murakkab ijtimoiy hodisadir. Sub'ektlar nuqtai nazaridan huquqiy ong, odatda, individual, guruhiy va jamoaviy (ommaviy) ongga bo'linadi. Shu o'rinda huquqiy ongning individual va ijtimoiy shakllari keng tarqalganligini alohida ta'kidlash lozim. Individual huquqiy ong - bu har bir shaxs, alohida insonga xos huquqiy bilimlar, baholar, hissiyotlar va tuyg'ular majmui hisoblanadi. Individual huquqiy ong doimo noyob va betakroridir. Huquqiy madaniyat haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'zining deyarli barcha ma'ruzalarida to'xtalib, xuquqiy madaniyatning axamiyatiga, uni yuksaltirish masalalariga e'tibor qaratadi. Masalan, 2016 yil 7-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan ma'ruzasida shunday dedi: "Qonun ustuvorligini ta'minlashda xuquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarni qonunga xurmat ruxida tarbiyalash muxim axamiyat kasb etadi". Huquqiy madaniyat deganda, jamiyatning qonunchilik darajasi, mavjud qonunlardan aholining xabardorlik darajasi, fuqarolarning, mansabdor shaxslarning huquq normalariga rioya qilishi va ularni bajarmagan shaxslarga nisbatan murosasiz bo'lishi tushuniladi. Huquqiy madaniyatning tarkibiy qismlari quyidagi elementlardan tashkil topadi:

- birinchidan, yuridik normalar tizimi bo'lmish huquq;
- ikkinchidan, huquqiy munosabatlar, ya'ni qonun bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlar tizimi;

- uchinchidan, huquqni muxofaza qilish va ta'minlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi davlat va jamiyat institutlari tizimi bo'lmish yuridik muassasalar;
- to'rtinchidan, xuquqiy ong ya'ni huquqiy voqelikni ma'naviy jixatdan
- aks ettiruvchi tizim;
- beshinchidan, huquqiy xatti- xarakat.

Profilaktika inspektorlari Adliya organlari bilan xuquqiy ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlarni o'tkazishda, fuqarolarning xuquqiy masalalarini hal etishda, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda, noqonuniy diniy xamda boshqa tashkilotlar faoliyatiga chek qo'yish choralari ko'rishda, fuqarolarning konstitusiyaviy xuquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ximoya qilish xamda bular bo'yicha fuqarolarning xuquqiy ongi va xuquqiy madaniyatini oshirishda hamkorlik qiladilar.

Bugungi kunda profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir faoliyatining eng muhim o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu uni amalga oshirish tizimidir va undagi faoliyatning amaliy tashkil qilinishini takomillashtirishdir.

Shu bois, profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir faoliyati tashkil etishdagi mavjud tahlildan avval uning o'ziga xos tizimi va faoliyatining asosiy yo'nalishlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Birinchidan, profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri bu targ'ibotni samarali xamda hamkorlikda tashkil eta olishdir. Targ'ibot qanday ko'rinishda bo'lmasin, kishi ongi, dunyoqarashi kaliti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. T-2024 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14-maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonun // URL: <http://www.lex.uz>.
3. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentyabr kuni qabul qilingan «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi qonuni // URL: <http://www.lex.uz>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. T-2017 yil 14 martdagi PQ-2833-son.
5. G'aniev F. T. Turkiya respublikasi: tabiyati, madaniyati va an'analari //Results of National Scientific Research International Journal. – 2024. – T. 3. – №. 3. – C. 101-116.
6. G'aniev F. T. O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy preventiv mexanizmi //Results of National Scientific Research International Journal. – 2024. – T. 3. – №. 3. – C. 84-90.
7. Ganiyev F., Ganiyeva G. O'g'irlik haqida tushuncha, o 'g 'irlikning psixologik genezisi va mehanizmlari //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 43-47.
8. Ganiyev F., O'zoqboyev S. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinadigan jinoyat ishlarini yuritish //Евразийский журнал технологий и инноваций. – 2023. – Т. 1. – №. 12 Part 2. – С. 131-134.
9. Ганиев Ф. Ўғирлик жиноятларининг профилактикаси тушунчаси ва турларига оид айрим мулоҳазалар //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 37-42.
10. Ганиев Ф. Т. Ўғрилик жиноятининг жиноят-хуқуқий жиҳатлари ва олдини олишга доир фикр-мулоҳазалар //Results of National Scientific Research International Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 301-313.
11. Ганиев Ф. Профилактика инспекторлари томонидан ўғриликларнинг олдини олиш фаолиятини ташкил этиш йўналишлари //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 159-162.

12. Ганиев Ф. “Обод ва хавфсиз маҳалла” тамойилига асосланган тизимни жорий этишда фуқоролар йиғинларини фаолиятини тизимли йўлга қўйиш //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 96-98.
13. Ганиев Ф. Ахборот хавфсизлиги ҳамда муҳофазаси таъминланганига қарамасдан содир этиладиган жиноятлар //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 129-138.
14. Taxirjanovich G. F., Qizi M. F. M. EKOLOGIYA SOHASIDAGI HUQUQBUZARLIKLARNING O 'ZIGA XOSLIGI //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 4. – С. 8-10.
15. Ganiyev F., O'zoqboyev S. ВОЯГА ЕТМАГАНЛАР ЖИНОЯТЧИЛИГИГА ҚАРШИ КУРАШИШ ВА ОЛДИНИ ОЛИШ-ДАВР ТАЛАБИ //Евразийский журнал технологий и инноваций. – 2023. – Т. 1. – №. 12 Part 2. – С. 125-130.
16. Ganiyev F., Ganiyeva G. O 'G 'IRLIK JINOYATI TUSHUNCHASI VA PROFILAKTIKASI //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 173-177.
17. G'aniyev F. PREVENTION OF OFFENSES RELATED TO RELIGIOUS EXTREMISM //Science and Innovation. – 2022. – Т. 1. – №. 7. – С. 125-128.
- G'Aniyev, F. "DINIY EKSTERIMIZM BILAN BOG'LIQ BO'LGAN QONUNBUZARLIKLARNING PROFLAKTIKASI." *Science and innovation* 1.C7 (2022): 125-128.
18. G'aniev F. T. O 'ZBEKISTONDA INSON HUQUQLARINI NIHOYA QILISH MILLIY PREVENTIV MEKANIZMI //Results of National Scientific Research International Journal. – 2024. – Т. 3. – №. 3. – С. 84-90.
19. Нарзиев Ш. З. и др. КИБЕР-ЖИНОЯТЧИЛИК ВА УНГА ҚАРШИ КУРАШИШ //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 44. – №. 2. – С. 9-13.
20. Нарзиев Ш. З. Профилактика инспекторларининг илгари судланган шахслар билан ҳуқуқбузарликларнинг якка тартибдаги профилактикаси чора-тадбирларини амалга ошириш фаолияти ҳақида айрим масалалар //zamonaviy fan, ta'lim va ishlab chiqarish muammolarining innovatsion yechimlari. – 2022. – С. 159-162.
21. Нарзиев Ш., Абдумаликов Р. ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАРДАН ЖАБРАНГАН ШАХСЛАР БИЛАН ИШЛАШ ФАОЛИЯТИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //Инновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 4. – С. 63-70.
22. Нарзиев Ш., Омонов Н. ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ТАЯНЧ ПУНКТЛАРИ НЕГИЗИДА ҲАМКОРЛИКНИ ҲУҚУҚИЙ ТАЪМИНЛАШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ //Development of pedagogical technologies in modern sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 7. – С. 184-188.
23. Нарзиев Ш., Қодирова И. БАРКАМОЛ, ЖИСМОНИЙ ВА РУҲИЙ СОҒЛОМ ШАХСНИ ТАРБИЯЛАШДА ИХТИСОСЛАШТИРИЛГАН ЎҚУВ-ТАРБИЯ МУАССАСАЛАРИНИНГ ЎРНИ //Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 20. – С. 152-155.
24. Нарзиев Ш., Зокиров Н. ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ ЖАМОАТ ТАРТИБИНИ САҚЛАШ ВА ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ БЎЙИЧА ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ТЎҒРИСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР //Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 20. – С. 156-164.
25. Нарзиев Ш., Абдулҳакимов Ж. ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ АХБОРОТ ТАҲЛИЛ ВА РЕЖАЛАШТИРИШ ФАОЛИЯТИ //Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 14. – С. 80-87.
26. Нарзиев Ш., Ибадуллаев Д. ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ НАЗОРАТСИЗ ВА ТАРБИЯСИ ОҒИР БЎЛГАН ВОЯГА ЕТМАГАНЛАР БИЛАН ИШЛАШ ФАОЛИЯТИ ҲАМДА УНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ АҲАМИЯТИ //Инновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 125-131.

27. Нарзиев Ш., Усмонов М. ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ СУРИНКАЛИ ИЧКИЛИККА РУЖУ ҚЎЙГАН ШАХСЛАР БИЛАН ИШЛАШ ФАОЛИЯТИ //Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 19. – С. 5-12.

28. Нарзиев Ш., Мирзаикромова Ф. ЭКОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР СОДИР ЭТИЛИШИ САБАБЛАРИ ВА УЛАРГА ИМКОН БЕРГАН ШАРТ-ШАРОИТЛАРИ //Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 20. – С. 147-151.

